

XONANDALIKDA TALABALAR OVOZINI YO'LG'A QO'YISH VA DARS MAZMUNI VA METODIKASI

Bexruz Hamidovich Boltayev

Barziyev Vais Jamshid o'g'li

Buxoro davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti

Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida oqituvchisi

Anotatsiya: Diapazon ham ovoz turini aniqlovchi belgilardan biridir. Biroq u o'quvchida doim ham to'la hajmda ifodalanmasligi mumkin. Ko'pincha u chegaralangan bo'ladi. Ba'zi hollarda uchraydigan "metso soprano" va "soprano" tonlarini o'z ichiga olgan, nihoyatda keng diapazon ham foyda bermaydi. Ovozni to'g'ri tasnif qilishda registr tuzilishini o'rganish yordamchi vositadir.

Kalit-so'zlar: Shashmaqom, Parda, Lad, Usul, poema, roman, diapazon, Tembr, Lirik dramatik tenor, Soprano.

Akademik xonandalik pedagogikasi ovozni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik xonandalik pedagogikasi xonandani o'qitish tizimida muhim o'rin egallaydi, ya'ni u tanlagan mutaxassislik bo'yicha chuqur nazariy bilimlar va amaliy malakalar yuzasidan tushuncha beradi. Barcha pedagoglar xonandalarni vokal san'atiga o'qitish jarayonida quyidagi to'rt tamoyilga asoslanadilar.

Hozirgi vaqtda ovoz turini bexato aniqlay oladigan yagona uslub mavjud emas. Ba'zi hollarda bas o'zi havas qilgan tenorga ovozini o'xhastishga harakat qiladi. Natijada tovushning shakllanishi yuzaki bo'lib qoladi. Tenor esa o'zini murakkablikdan xoli qilish uchun bariton deb aytadi. Pedagog o'quvchining ovoz xususiyatlarini uning ijrochilik usulidan ajrata bilish kerak. Ovoz turini aniqlashda tembr, diapazon, registr tuzilishining xususiyatlari, markaziy tovushlar, tessiturani ushlay bilish qobiliyati, hamda fiziologik –anatomik belgilar (Ovoz bog'lamlarining uzunligi va zichligi, rezonator tizimlari va boshqalar), xronaksimmetriya kabi qator alomatlar hisobga olinishi kerak. Tajribali vokal o'qituvchisi o'quvchining ovoz tembridan ko'p narsani bilib oladi. Bu shaxsiy akustik xususiyat turli tessituralarda sinchiklab tekshirilishi lozim. Tembrning eng yaxshi sifatlarini eshitish uchun bir asarni yondosh tonalliklarga ko'chirib ijro etish mumkin.

Diapazon ham ovoz turini aniqlovchi belgilardan biridir. Biroq u o'quvchida doim ham to'la hajmda ifodalanmasligi mumkin. Ko'pincha u chegaralangan bo'ladi. Ba'zi hollarda uchraydigan "metso soprano" va "soprano" tonlarini o'z ichiga olgan, nihoyatda keng diapazon ham foyda bermaydi. Ovozni to'g'ri tasnif qilishda registr tuzilishini o'rganish yordamchi vositadir.

Erkaklar ovozlarining turi, hajmi va kengligi quyidagilardan iborat:

Tenor (do kichik oktava – do 2 oktava) ovoz kengligiga ega.

Altino tenor – juda harakatchan yengil yuqori registrda jaranglaydi. Lirik tenor – yumshoq harakatchan ovoz jarangi deyarli hamma joyda bir tekis taraladi. Xarakterli tenor - lirik ovozning chiroyli va yoqimlilikini belgilaydi.

Lirik dramatik tenor – keng ovoz hajmi kengligiga ega ovoz.

Dramatik tenor - kuchli, jarangdor bo'lib, drammatik holatlarni tasvirlay oladigan ovoz.

Bariton – (A – kichik oktava – G – birinchi oktava lya - katta okatavadan sol - birinchi oktavagacha).

Lirik bariton - xarakteri bo'yicha tenor tembriga yaqin, lekin bariton xususiyatiga ega ovoz. Drammatik bariton - unchalik yorqin bo'lmagan ovoz, katta kuchga ega va pastki registrdagi ovoz bo'linmalarini ham ijro eta oladi.

Bas ovoz – (fa- katta oktavadan – fa-birinchi oktava). Yuqori bas – (yorqin jaranglash, baritonal tembrni eslatadi.) Markaziy bas- xarakterdagi aniq bilinadigan tembrga ega ovoz. Pastki bas - chuqur, kuchli va past tovushga ega. Oktavadagi bas-asosan xorlarda aytiladigan ovoz. Kontr oktavagacha tushishi mumkin.

Bas - bu ham xarakterli tenorga o'xshab sahna imkoniyatiga qarab ijro eta oladi.

Ayollar ovozlarning turlari quyidagilardan iborat:

Soprano do – birinchi oktava (do uchinchi oktava) ovoz kengligida yuqori pag'onalarda yengil jaranglaydi. Koloratura ovozi – Juda chiroyli tembrni, o'ta o'zgaruvchan melizimlarga boy va katta harakatchanlikka ega ovoz. Bu ovoz do-birinchi oktava, uchinchi oktava do – re-mi va undan ham kengroq ovoz hajm kengligiga ega.

Lirik koloratura ovoz – o'ynoqi, yengil texnik harakatchan va mayin ohangdor ovoz. Lirik soprano ovoz - yengil hamda baquvvat yuqori ovozlari. 3-oktava “do” dan oshmaydi.

Lirik dramatik soprano - ancha to'la ovoz, ko'krak tembrni jarangdor bo'ladi. Dramatik soprano ovozi - kuchli, vazmin ovoz. Dramatik tembrda jaranglaydi.

Metso soprano -kichik oktava lya - ikkinchi oktava lya gacha. Yuqori metso ayollar ovozi - ko'krak ovozi bo'lib mayin tembrli bo'ladi. Pastki metso ayollar ovozi – ancha pastda bo'lib, yo'g'on eshitaladi.

Kontralto – (mi kichik oktava , fa – ikkinchi oktava) eng pastki va kamdan-kam uchraydigan ayollar ovozi. Juda katta va keng jarangga ega.

Bolalar ovozlarning turlari quyidagilardan iborat:

Soprano-(diskant) yuqori ovoz, yengil, o'zgaruvchan yumshoq yangraydi. Katta ta'assir kuchiga ega (do-birinchi oktava, fa, sol-ikkinchi oktava)

Alt- bolalar pastki ovozi-kuchli va birmuncha yo'g'on jarangdor tembrga ega.

(sol, lya- kichik oktava, re – mi ikkinchi oktava)²¹

Ta'lim jarayonida ovoz turlarini, uning hajmini, kengligini aniqlash orqali ovoz xarakteriga mos bo'lgan vokal mashqlari – vokalizlar hamda qo'shiqlar kuylatib boriladi, bu esa ovoz hajmi kengligini chiroyli, rang-barang tembrda va jarangdor bo'lishiga imkon yaratadi.

O'qitishda tadrijiylik va davomiylik tamoyili. Bu umumpedagogik tamoyil bo'lib, ta'lim jarayonida soddadan murakkabga qarab borishni nazarda tutadi.

Tadrijiylik xonanda diapazonini kengaytirishda - vokal mashqlari, repertuar tanlash, lirik hissiyotdan dramatik hissiyotga o'tish uchun qo'llaniladi. Repertuarni murakkablashtirish ovoz zo'riqishi va ovozni yo'qotishga olib keladi. O'quvchi bilan ishlaganda birinchi navbatda ovoz tembri, uning yorqinligi, sifati va uchqurligi uchun g'amxo'rlik qilish zarur. Bu ishlarni amadga oshirayotganda ovoz zo'riqishidan saqlanish lozim.

Adabiyotlar:

1. Болтаев, Бехруз Хамидович. "Методы вокального развития для школьников." *Проблемы науки* 4 (63) (2021): 98-100.
2. Boltayev B. H. DARVISH ALI CHANGIY VA ZAMONDOSHLARIDA FAZOVIY (KOSMOLOGIK) 12-MAQOM FALAK BURJLARI NAZARIY TAMOYILLARI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 11. – С. 85-90.
3. Болтаев Б. Х. Описание приёмы и методики представителей исторического генезиса и этапов узбекского музыкального обучения //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 806-813.
4. Hamidovich B. B. Classification of the Bukhara Status (" Shashmakom") System //AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 109-111.
5. Boltayev B. H. BUXORO SHASHMAQOMI VA XORAZM MAQOM IJROCHILIGIDA MUSHKULOT (CHERTIM) VA NASR (AYTIM) YO'LLARI SEMANTIKASI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – С. 776-782.
6. Boltayev B. H. BUXORO AJDODIY SAN'ATI "SHASHMAQOM" TIZIMINING NAZARIY TAMOYILLARI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 152-158.
7. Rajabov T. I., Boltayev B. H. Al-Forobiy Va Ibn Sino Sharq Musiqiy Ta'limotida "Iyqoot" Usullari Nazariyasi Asoslarining Zamonaviy Tasnifi //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 39-43.
8. Behruz Boltayev Hamidovich INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM. *Academia Science Repository*, 4(04), 1063–1066. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/90>
9. Behruz Boltayev Hamidovich. (2023). AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF "IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION. *Academia Science Repository*, 4(04), 102–104. Retrieved from <http://academiascience.com/index.php/repo/article/view/414>
10. БОЛТАЕВ Б. Х. ПРОБЛЕМЫ НАУКИ //ПРОБЛЕМЫ НАУКИ Учредители: Олимп. – №. 4. – С. 98-100.